



HUQUQNI MUHOFAZA QILUVCHI ORGANLAR TIZIMIDA INSON HUQUQ VA ERKINLARINI HIMOYA QILINISHI

Napasova Oysha Yunus qizi

Urganch davlat universiteti Ijtimoiy- iqtisodiy fanlar fakulteti
yurisprudensiya yo'nalishi 1-bosqich talabasi
<https://doi.org/10.5281/zenodo.17549320>

ARTICLE INFO

Qabul qilindi: 01-noyabr 2025 yil
Ma'qullandi: 05-noyabr 2025 yil
Nashr qilindi: 07-noyabr 2025 yil

KEYWORDS

Huquqni muhofaza qiluvchi organ, inson huquq va erkinliklari, qonun ustuvorligi, ijtimoiy adolat, Ombudsman, huquqiy kafolat, huquqiy islohotlar

ABSTRACT

Mazkur maqolada O'zbekiston Respublikasida huquqni muhofaza qiluvchi organlar tizimida inson huquq va erkinliklarini ta'minlashdagi o'rni va ahamiyati yoritilgan. So'nggi yillarda yurtimizda inson huquq va erkinlarini himoyasini ta'minlash bo'yicha qanday islohatlar olib borilgani va shu asosda davlat organlari tizimida ijtimoiy adolat va qonun ustuvorligining o'rnatilganligi haqida so'z boradi. Davlat organlari va huquqni muhofaza qiluvchi organlar tomonidan inson huquq va erkinliklarini himoya qilishdagi asosiy vazifalari tahlil qilinadi. Maqolada milliy qonunchilik va xalqaro huquq normalari asosida inson manfaatlari himoya qilishga doir tavsiyalar va huquqiy hujjatlar tahlili ham berilgan..

Bugungi kunda inson huquq va erkinliklarini ta'minlash muhim ahamiyat kasb etadi, ayniqsa huquqni muhofaza qiluvchi organlar tizimida. Chunki jamiyatimizda har bir shaxsning huquq va erkinlari Konstitutsiya bilan belgilanadi. Inson huquq va erkinliklari hayotimizning ajralmas qismi va har bir inson o'zining huquq va erkinliklaridan to'laqonli foydalanishi uchun davlat tomonidan shart sharoitlar yaratib berilgan. Inson huquq va erkinliklari tushunchasiga ta'rif beradigan bo'lsak, bu har bir inson tug'ilgan paytdan boshlab ega bo'lgan, uni jamiyat va davlat tomonidan tan olinadigan va himoya qilinadigan tabiiy, ajralmas va daxlsiz huquqlardir. Inson huquqini ta'minlash va uni himoya qilish kishilik jamiyati taraqqiyotining barcha bosqichlarida eng asosiy va bosh masalalardan biri bo'lib kelgan. Mamlakatimizda bugungi kun yangi islohotlar bosqichida inson huquqini himoya qilish, uning huquqiy kafolatlarini mustahkamlash eng ustuvor, birinchi darajali, davlat siyosati darajasiga ko'tarilgan masalaga aylandi. O'zbekiston Respublikasining Prezidenti Sh.M.Mirziyoyev ta'kidlaganidek, "...inson huquq va erkinliklariga amal qilinishini ta'minlash, har bir shaxsning qadr-qimmatini e'zozlash biz barpo etayotgan ochiq, erkin va adolatli jamiyatning ajralmas xususiyatidir". Konstitutsiyamizning 19-moddasida "O'zbekiston Respublikasida barcha fuqarolar bir xil huquq va erkinliklarga ega bo'lib, jinsi, irqi, millati, tili, dini, e'tiqodi, ijtimoiy kelib chiqishi, ijtimoiy mavqeyidan qat'i nazar, qonun oldida tengdirlar" va 13-moddasida "inson, uning hayoti, erkinligi, sha'ni, qadr-qimmatini va boshqa ajralmas huquqlari oliy qadriyat hisoblanadi" deb belgilab

qo'yilgan va har bir fuqaro o'z huquq va erkinliklaridan ochiq va erkin foydalanishi mumkin. Albatta huquqiy madaniyatga amal qilgan holda.

Huquqni muhofaza qiluvchi organlar deganda, bizni hayolimizga birinchi bo'lib sud, prokuratura, Adliya vazirligi, Davlat xavfsizlik xizmati va ichki ishlar organlari keladi va bu organlar inson huquq va erkinlarini himoya qilinishi, ularning buzilishiga yo'l qo'ymaslik, aybsizlik prezumpsiyasi orqali adolatni sudlovni va ijtimoiy adolatni ta'minlovchi organlar hisoblanadi. Huquqni muhofaza qiluvchi organlar tizimida ham inson huquqlari ta'minlanishiga alodida e'tibor qaratiladi ya'ni organ xodimlarning teng huquqqa egaligiga, ularning har biri mehnat faoliyatida vujudga keladigan huquqlardan to'liq foydalanish imkoniyatlari yaratiladi. Xodimlar o'z xizmat vazifalarini bajarishda qonun ustuvorligi, adolat, insonparvarlik va halollik tamoyillariga amal qiladilar. Shu bilan birga, ularning sha'ni, qadr-qimmati, sog'lig'i va xavfsizligi davlat tomonidan kafolatlanadi. Bundan tashqari, huquqni muhofaza qiluvchi organlar tizimida xodimlarning ijtimoiy himoyasi, xizmat sharoitlari, dam olish va malakasini oshirish imkoniyatlari ham qonun asosida tartibga solinadi. Bu esa inson huquq va erkinliklarini ta'minlash yo'lida xizmat qiluvchi har bir xodimning faoliyatini yanada samarali va adolatli amalga oshirishiga zamin yaratadi. Shuningdek, inson huquqlarini himoya qilishda huquqni muhofaza qiluvchi organlar zimmasiga katta mas'uliyat yuklatilgan. Ular fuqarolarning konstitutsiyaviy huquq va erkinliklarini buzilishiga yo'l qo'ymaslik, adolatni tiklash va qonuniylikni ta'minlashda muhim o'rin tutadi. Shu sababli, tizimda xizmat qilayotgan har bir xodim inson huquqlariga hurmat bilan qarash, ularni himoya qilish va adolatni ta'minlashda o'z kasbiy burchini sidqidildan bajarishi lozim. Yuqorida aytib o'tilgan organlarning samarali ishlashi jamiyatimizda inson huquq va erkinliklarini himoyasi ta'minlaydi va shu orqali jamiyatimizda o'z obro'lariga ega bo'lib, davlat va xalq ishonchini mustahkamlaydi. Huquqni muhofaza qiluvchi organlar tizimida inson huquq va erkinliklari qay darajada ta'minlanganini ko'rib chiqadigan bo'lsak, avvalo sud organlari tizimida ko'rib chiqamiz " Sudlar to'g'risida"gi qonunning 82-moddasida *"Sudyalarga har yili o'ttiz kalendar kunidan iborat mehnat ta'tili beriladi. O'n yildan ortiq sudyalik ish stajiga ega bo'lgan sudyalarga o'z xohishiga ko'ra olti kalendar kunigacha qo'shimcha mehnat ta'tili berilishi mumkin"* belgilab qo'yilgan ya'ni dam olish huquq bu ham inson huquq va erkinliklaridan biri hisoblanadi. Bu norma Konstitutsiyamizning 45-moddasida belgilan qo'yilgan. Sudyalar ham o'z mehnat faoliyatida davomida dam olish huquqiga ega va ular bu orqali o'z huquq va erkinliklaridan foydalanishadi. Dam olish huquqi faqat oddiy fuqarolarga emas balki huquqni muhofaza organlar tizimidagi xodimlarga ham tegishli ya'ni oddiy odamlar foydalangan huquqlaridan ular ham foydalanishadi. Yuqorida aytilgan gaplarni ijtimoiy adolatning ta'minlanishiga ham misol qilishimiz mumkin ya'ni mansabidan qat'iy nazar hamma qonundan bir xil foydalanish huquqiga ega. Huquqni muhofaza qiluvchi organlar tizimida inson huquqlari ta'minlanishiga yana bir misol qilib *"Ichki ishlar organlari to'g'risida"*gi qonunning 36-moddasining ikkinchi qismida *"Ichki ishlar organlarining xodimlari, harbiy xizmatchilari, pensionerlari sanatoriy-kurort sharoitida davolanish uchun yiliga bir marta imtiyozli yo'llanmalar bilan ta'minlanadi"* deb belgilangan moddaga ko'ra ichki ishlar xodimlari o'z ishida fidokorona mehnati uchun rag'bat sifatida o'z sog'liqlarini yaxshilashi orqali xalq va davlat oldidagi burchilarini yanada samarali ado etishi uchun davolanishi va sog'lig'ini tiklashi uchun shart sharoitlar yaratadi. Bu ham inson huquqlarining ta'minlanishi deb aytish mumkin. Xodimlar ham inson ular ham o'z huquqlaridan to'liq foydalanish, munosib mehnat sharoitida ishlash va dam olish huquqiga egadirlar.

Inson huquq va ekinlarini ta'minlash va himoya qilishda yana bir tashkilot bor bu O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlisning Inson huquqlari bo'yicha vakili (OMBUDSMAN). Ombudsmanning asosiy vazifalari inson huquqlari, erkinlari va qonuniy manfaatlariga oid davlat siyosatini amalga oshirishda ishtirok etish, inson huquqlariga doir qonunchilik hujjatlarini amalda ro'yobga chiqarilishini o'rganish va jismoniy va yuridik shaxslarning inson huquqlari, erkinliklari va qonuniy manfaatlari buzilishiga doir murojatlarni ko'rib chiqishdan iborat. Shu jumladan, ichki ishlar, prokuratura, sud organlari va boshqa huquqni muhofaza qiluvchi idoralar faoliyatida yo'l qo'yiladigan qonunbuzarliklarni aniqlash va ularni bartaraf etishga qaratilgan. Ombudsman bu jarayonlarda mustaqil nazorat funksiyasini amalga oshiradi. U jazoni ijro etish muassasalari, tergov izolyatorlari, vaqtincha saqlash joylari va boshqa yopiq muassasalarga tashrif buyurib, u yerda saqlanayotgan shaxslarning huquqlari qay darajada ta'minlanayotganini o'rganadi. Bu esa huquqni muhofaza qiluvchi organlarning faoliyati ustidan jamoatchilik nazoratini amalga oshirish imkonini beradi. Shuningdek, Ombudsman fuqarolarning murojaatlarini ko'rib chiqish orqali ham inson huquqlarini himoya qiladi. Agar fuqaroning huquqlari ichki ishlar, prokuratura yoki boshqa huquqni muhofaza qiluvchi organ tomonidan buzilgan bo'lsa, Ombudsman u murojaatni mustaqil o'rganadi va tegishli chora ko'rish uchun masalani vakolatli organlarga yuboradi. Bu orqali u fuqarolar bilan davlat organlari o'rtasida vositachi rolini bajaradi. Ombudsman o'z faoliyatida tavsiya va ta'sir choralari qo'llash huquqiga ega. U inson huquqlarini buzgan mansabdor shaxslarga nisbatan qonuniy choralar ko'rishni so'rab, prokuratura yoki sudlarga murojaat qiladi. Shuningdek, Ombudsman parlamentga yoki tegishli vazirliklarga inson huquqlarini yaxshilash bo'yicha taklif va tavsiyalar beradi. Ombudsman xalqaro hamkorlik ishlarni ham olib boradi. Bular quyidagilar: Bilashgan Millatlar Tashkiloti va Inson huquqlari bo'yicha xalqaro institutlar bilan hamkorlikda ishlaydi. Ombudsmanni huquqni muhofaza qiluvchi organlar tizimida inson huquqlari, erkinliklari va qonuniy manfaatlarini ta'minlanishi ustidan nazorat qiluvchi organ yoki tashkilot deb aytishimiz mumkin. Ombudsmanning o'zining rasmiy sayti bo'lib (<https://ombudsman.uz>) unda arizalar berish yanada qulay va tez, u yerda siz o'zingizni qiziqtirgan savollarga ham javob topishingiz mumkin.

So'nggi yillarda davlatimiz rahbari inson huquqlarini ta'minlash bo'yicha islohotlar olib bordi va bu islohotlar o'z samarasini bermay qolmadi shunday ekan xalqimiz va davlat xizmatchilari bu o'zgarishdan foydalanib bilishdi. Inson huquqlari va erkinliklarini himoya qilishning samarali mexanizmini yaratish, inson huquqlari madaniyatini shakllantrish bo'yicha amalga oshirilayotgan chora-tadbirlar samaradorligini oshirish, shuningdek, 2017-2021 yillarda O'zbekiston Respublikasini rivojlantirishning beshta ustuvor yo'nalishlari bo'yicha Harakatlar strategiyasini ijro etish maqsadida 22 iyun 2020 yilda O'zbekiston Respublikasi Prezidentining "Inson huquqlari bo'yicha O'zbekiston Respublikasining milliy strategiyasini tasdiqlash to'g'risida"gi PF-6012-son Farmoni tasdiqlandi. Farmonga muvofiq, Oliy Majlis palatalariga inson huquqlari sohasida xalqaro majburiyatlarga rioya etish bo'yicha parlament komissiyasini tuzish taklifi kiritildi. "Inson manfaatlari hamma narsadan ustun" degan tamoyil asosida xalqimiz hayotini tubdan yaxshilash bo'yicha olib borilayotgan keng ko'lamli ijtimoiy-iqtisodiy islohotlarni davom ettirish, aholi farovonligini oshirish va uning ijtimoiy himoyasini kuchaytirish davlat hokimiyati organlarining bosh vazifalaridan biri bo'lib qoladi. Garchi, milliy qonunchiligimizda ham inson huquq va erkinliklariga oid huquqiy hujjatlar bo'lsada xalqaro hujjatlar ham respublika hududida amal qiladi. Inson huquqlari umumjahon deklaratsiyasiga ko'ra "Har bir inson qayerda

bo'lishidan qat'i nazar, o'zining huquq subyekti sifatida tan olinishiga haqli" shunga muvofiq chet el fuqarosi yoki fuqaroligi bo'lmagan shaxs ham xalqaro normalarda mustahkamlab qo'yilgan inson huquqlaridan foydalanishga haqli. Inson huquqlari bo'yicha milliy huquqiy hujjatlar xalqaro darajadagi hujjatlarga va normalarga muvofiq bo'ladi va xalqaro va milliy qonunchilik o'rtasida tafovutlar yuzaga kelganda xalqaro normalar ustun hisoblanadi. Inson huquqlari bo'yicha xalqaro standartlar milliy qonunchilikka va huquqni qo'llash amaliyotiga tizimli hamda bosqichma-bosqich implementatsiya qilinmoqda. Bugungi kunda O'zbekiston tomonidan ratifikatsiya qilingan 80 dan ortiq inson huquqlari va erkinliklari sohasidagi xalqaro hujjatlar normalari milliy qonunchilikda o'z aksini topmoqda. Amalga oshirilayotgan keng ko'lamli islohotlar insonlar hayotini, dunyoqarashini hamda turmush tarzini o'zgartirmoqda. Jamiyatda «Yangi O'zbekistonni birgalikda barpo etamiz» degan ulug'vor maqsad shakllandi va «Jamiyat — islohotlar tashabbuskori» degan yangi g'oya kundalik faoliyatimizga faol kirib bormoqda. O'zbekiston xalqaro maydonda amalga oshirayotgan barcha chora-tadbirlar doirasida inson huquqlarini amalga oshirishga salmoqli hissa qo'shmoqda. Mamlakatimiz xalqaro huquqning subyekti sifatida o'z rivojlanishining yangi bosqichiga ko'tarildi va xalqaro shartnomalar tuzish tashabbuskori sifatida xalqaro normalarni ishlab chiqishda faol ishtirok etib kelmoqda.

Mamlakatimizda inson huquqlari himoyasi ham ta'minlanadi. Mustaqillik yillarida mamlakatda inson huquqlarini himoya qilish bilan shug'ullanuvchi davlat tashkilotlari tizimi shakllandi. Bu tizimda an'anaviy sudlov va huquqni muhofaza qilish organlaridan iborat bo'lgan sudlov organlari bilan bir qatorda, inson huquqlari bo'yicha milliy institutlar va nodavlat tashkilotlaridan iborat bo'lgan inson huquqlari bo'yicha nosudlov organlari ham shakllandi.

Inson huquqlarini O'zbekiston Respublikasining sud organlari orqali himoya qilish inson huquqlari va erkinliklarini himoya qilish mexanizmining tarkibiy va hal qiluvchi qismidir. Chunki, sud buzilgan inson huquqlari va erkinliklarini tiklash tizimida eng muhim vosita hisoblanadi. Har bir shaxsning huquq va erkinliklarini sud tomonidan muhofaza etilishi, davlat organlari, mansabdor shaxslar va jamoat birlashmalarining noqonuniy harakatlaridan sudga shikoyat qilish huquqi kafolatlanadi. O'zbekiston Respublikasida sud hokimiyati qonun chiqaruvchi va ijro etuvchi hokimiyatlardan, siyosiy partiyalardan va boshqa jamoat birlashmalaridan mustaqil holda ish yuritishi e'lon qilindi. Mamlakatdagi huquqni muhofaza qiluvchi organlar tizimi davlat hokimiyatining an'anaviy tizimi sifatida inson huquqlari va erkinliklarini himoya qilishdagi ishtiroki beqiyos hisoblanadi.

Jumladan, O'zbekiston Respublikasining prokuratura organlari huquqni muhofaza qiluvchi, shu jumladan, inson huquqlarini himoya qilish tizimida muhim va asosiy o'rinlardan birini egallaydi. Qonuniylik va huquqiy tartibotga rioya etish ustidan nazorat qiladigan davlat organi bo'lgan prokuratura nafaqat davlat hokimiyatini mustahkamlash vazifasini, balki inson va fuqaroning konstitutsiyaviy huquq va erkinliklarini himoya qilish bo'yicha muhim ijtimoiy vazifani ham bajaradi. Aynan fuqarolarning konstitutsiyaviy huquqlarini davlat organlari mansabdor shaxslarining noqonuniy harakatlari yoki harakatsizligidan himoya qilish O'zbekistonda huquqiy davlat barpo etish jarayonida muhim ahamiyat kasb etadi.

Foydalanilgan adabiyotla:

1. Inson huquqlari umumjahon deklaratsiyasi. 10.12.1948.
2. O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi. Rasmiy nashr. - Toshkent: "O'zbekiston" nashriyoti, 2023. - 120 b.
3. O'zbekiston Respublikasining "Sudlar to'g'risida"gi Qonuni. 28.07.2021, O'RQ-703-son.

4. O'zbekiston Respublikasining "Ichki ishlar to'g'risida"gi Qonuni. 16.09.2016, O'RQ-409-son.
5. Internet manbalar:
6. <https://ombudsman.uz/>
7. <http://insonhuquqlari.uz/>
8. <https://lex.uz/>
9. <https://advice.uz/z>



INNOVATIVE
ACADEMY